

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

**3-2025
FILOLOGIYA**

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

N.O.Ikromova Chingiz Aytmatovning “Alvido, Gulsari” qissasi nutq shakllarini tarjima qilishning psixolingvistik xususiyatlari	128
Ш.М.Артикова Сопоставление стратегий вежливости и культурных установок в англосаксонском и узбекском семейном дискурсе.....	136
G.A.Komilova Siyosiy nutqlarda ishontirish strategiyalarining lingvistik tahlili.....	145
M.T.Ikromov Botanik terminlarning etnomadaniy tadqiqi.....	149
U.H.Usmonova O'zbek, rus va ingliz tillaridagi fe'l frazeologik birliklarning struktur-semanatik va lingvokulturologik tadqiqi	154
U.M.Askarova Gapda uyushiq bo'laklarning o'rni va ahamiyati (Ozod Sharafiddinov asarlari misolida).....	158
Sh.Kh.Sayidov, N.M.Nabijonova The intersection of paralinguistics and sociolinguistics.....	163
M.Y.Mamajonov, F.A.Bekmuxamedova Inglizcha va o'zbekcha maqollar asosida lingvokognitiv tahlil	166
Sh.Sh.Dadabayeva Aksiolingvistikadagi asosiy jarayonlar	171
Sh.Sh.Dadabayeva Axloqiy-fuqaroviy qadriyatlarni ifodalovchi aksiologik leksikalar tadqiqi	175
L.T.Galimullina, K.M.Akramova The semantics of verbal phraseological units and their evaluative emotive peculiarities in the English and Russian languages	179
X.A.Baymanov, M.M.Soatova Hajviy matnlarni tarjima qilishning kognitiv-pragmatik xususiyatlari	184
Sh.R.Karimjonova Kognitiv tilshunoslik: asosiy yondashuvlar va tushunchalar	188
L.T.Galimullina, N.F.Salakhutdinova Some issues in the antonymy of phraseological units in the english language	195
Р.Сулейманова Историческая лексика тюркских языков: морфосемантическое и этимологическое исследование корневых слов	199
A.Sh.Mukhamadiev Aggression as a form of speech influence in the literature of the uzbek and english languages ..	203
S.Z.Hemidli Metaphorization in the mythological lexicon of english and azerbaijani languages (comparative-historical typological linguistics).....	209
X.U.Qodirova Nutqiy etiket va milliy-madaniy identikasiya: ingliz tili konteksti misolida	215
Д.Б.Хамидова Влияние языка на формирование специализированной терминологии	218
G.A.Zaynutdinova O'zbek tilshunosligida lingvopoetika umumfilologik yo'nalish sifatida	222
R.Kahramanova Lexical and grammatical features of kinship terms in azerbaijani dialects	227
A.M.Aimuxammetova Ingliz va qoraqalpoq tilshunosligida numerativ birliklarning o'rganilish tarixi	231
N.Q.Adamboyeva Non-traditional language learning methods and brain activity	234
D.S.Usmonova, N.R.Rajabova Ingliz tili o'rganishda gamifikatsiya: motivatsiya va faollikni oshirish	237
M.T.Raxmonqulova Tilshunoslikda “Konsept” va “Konseptosfera” tushunchalari talqini	241



UO'K:170.4

AXLOQIY-FUQAROVIIY QADRIYATLARNI IFODALOVCHI AKSIOLOGIK LEKSIKALAR TADQIQI**ИССЛЕДОВАНИЕ АКСИОЛОГИЧЕСКИХ ЛЕКСИКОНОВ, ВЫРАЖАЮЩИХ НРАВСТВЕННО-ГРАЖДАНСКИЕ ЦЕННОСТИ****A STUDY ON AXIOLOGICAL LEXICON EXPRESSING ETHICAL-CIVIC VALUES****Dadabayeva Shirinxon Shuxratovna** 

Farg'ona davlat universiteti, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Annotatsiya

Ushbu maqola axloqiy-fuqaroviy qadriyatlarni ifodalovchi aksiologik leksikalarni tahlil qilish orqali tilshunoslik va etika sohalaridagi nazariy yondashuvlarni muhokama qiladi. Maqolada leksik birliklarning semantik turlari, ya'ni ezgulik va yovuzlik tushunchalari hamda fuqarolik qadriyatlari (erkinlik, adolat, tenglik, demokratiya) aniqlik kiritilgan. Tadqiqot davomida so'zlar, sifatlar, kollokatsiyalar va iboralarning tarixiy rivojlanishi, ularning kelib chiqishi hamda zamonaviy kontekstlardagi qo'llanilishi o'rganilgan. Nazariy adabiyotlar asosida A.F. Lago, T.P. Krzeszovski, P. Pauvels va S. Vandenbergning fikrlari tahlil qilinib, aksiologik leksikalar tizimi boyitilgan. Maqola ilmiy tadqiqotlar asosida axloqiy-ijtimoiy qadriyatlarning til ifodasini yoritib, madaniy va siyosiy sohalarida til amaliyotini yanada boyitishga xizmat qiladi. Ushbu ilmiy asarda nafaqat nazariy yondashuvlar, balki empirik tahlil metodlari ham kiritilgan bo'lib, ular so'zlashuv va yozma muloqot misollari orqali aks ettirilgan. Tadqiqot natijalari tilshunoslik, etika va madaniyatshunoslik sohalarida yangi qarashlarni shakllantirishga, qadriyatlar makrostrukturasi yanada chuqurroq o'rganishga turtki bo'lishi kutilmoqda. Shu tarzda, maqola ilmiy hamjamiyatda katta qiziqish uyg'otadi. Natijalar ilmiy tajriba va nazariy yondashuvlarning umumiy samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Аннотация

Данная статья обсуждает теоретические подходы в лингвистике и этике посредством анализа аксиологических лексиконов, выражающих нравственно-гражданские ценности. В статье уточняются семантические виды лексических единиц, а именно понятия добродетели и порока, а также гражданские ценности (свобода, справедливость, равенство, демократия). В ходе исследования изучалась историческая динамика слов, прилагательных, коллокаций и выражений, их происхождение и современное применение в различных контекстах. На основе анализа теоретической литературы были рассмотрены взгляды A.F. Lago, T.P. Krzeszovski, P. Pauvels и S. Vandenberg, что позволило обогатить систему аксиологических лексиконов. Статья, основанная на научных исследованиях, раскрывает языковые выражения нравственно-общественных ценностей и способствует развитию языковой практики в культурной и политической сферах. Представлены как теоретические подходы, так и эмпирические методы анализа, иллюстрированные примерами устной и письменной коммуникации. Результаты исследования могут стимулировать формирование новых взглядов в лингвистике, этике и культурологии, а также углублённое изучение макроструктуры ценностей. Таким образом, статья вызывает значительный интерес в научном сообществе и способствует повышению эффективности научного опыта и теоретических подходов.

Abstract

This article discusses theoretical approaches in linguistics and ethics by analyzing axiological lexicons that express ethical-civic values. The article clarifies the semantic types of lexical units, namely the concepts of virtue and vice, as well as civic values (freedom, justice, equality, democracy). The study examines the historical evolution of words, adjectives, collocations, and expressions, their origins, and modern usage in various contexts. Based on a review of the theoretical literature, the ideas of A.F. Lago, T.P. Krzeszovski, P. Pauvels, and S. Vandenberg are analyzed, enriching the system of axiological lexicons. The article, grounded in scientific research, highlights the linguistic expression of moral-social values and contributes to the enhancement of language practice in cultural and political spheres. Both theoretical approaches and empirical analysis methods are presented, as illustrated by examples from oral and written communication. The research findings are expected to stimulate the formation of new perspectives in linguistics, ethics, and cultural studies, as well as lead to a deeper understanding of the macrostructure of values. In this way, the article generates considerable interest within the academic community and contributes to improving the overall effectiveness of scientific experience and theoretical approaches.

Kalit so'zlar: Aksiologiya, aksiolingvistika, baholash jarayoni, darajalanish jarayoni, semantic ma'no, baholash nazariyasi, implicit baholash, eksplisit baholash.

Key words: Axiology, Axioinguistics, Evaluation Process, Ranking Process, Semantic Meaning, Evaluation Theory, Implicit Evaluation, Explicit Evaluation.

Ключевые слова: Aksiologiya, aksiolingvistika, процесс оценки, процесс ранжирования, семантическое значение, теория оценки, неявная оценка, явная оценка.

KIRISH

Ingliz tilida ingliz madaniyatiga oid qadriyatlarni ifodalovchi aksiologik leksikalarning axloqiy, fuqaroviy, shaxsiy-ijtimoiy hamda madaniy kabi semantic turlari mavjud. Ushbu tadqiqotda aksiologik leksikaning jahon tilshunosligida o'rganilishi hamda ularning semantic turi bo'lgan axloqiy va fuqaroviy qadriyatlarni ifodalovchi aksiologik leksikani tahlil qilinishi maqsadga muvofiqdir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Ko'plab olimlarning olib borgan tadqiqotlarida aksiologik leksika termini qo'llanilmagan bo'lsa-da, ular nazarda tutgan birlik yoki formalar aynan aksiologik leksika ekanligini aytish mumkin. Xususan, jahon tilshunosligida A.F.Lago o'zining ilmiy ishida baholash mazmunidagi sifatlarning qadriyatlarni ifodalashini o'rgangan[5]. Xususan, A.F.Lago E.Hevit bilan birgalikda kasbiy va ijtimoiy qadriyatlar tizimini shakllantirgan[4;8-26]. Ular tomonidan qadriyatlarni ifodalovchi "jamoaga yo'naltirilgan" va "innovatsion" sifatlar tizimini tadqiq etilgan.

T.P.Krzeszovski o'zining tadqiqotida kognitiv modellarning aksiologik aspektini hamda konseptlardagi aksiologik parameterlarni o'rganadi. U konseptual metaforalarni aksiologik parameter sifatida ko'rsatadi. Undan tashqari olim baholovchi mazmundagi so'zlarni o'zaro qarama-qarshi qo'yish orqali chog'ishtirish jarayonini tildagi ifodasini o'rganadi. Olimning fikriga ko'ra ba'zi o'xshash so'zlar baholash mazmunidan kelib chiqib farqlanish ega[3]. Masalan u "brave" va "foolhardy" so'zlarining ma'nosi tavakkal qila oladigan bo'lib, ammo bu so'zlar kontekstdan kelib chiqib, birinchisi ijobiy, ikkinchisi salbiy ma'noda ishlatilishini aytib o'tadi.

P.Pauvels va S.Vandenberglar baholash mazmunidagi metaforik iboralar tizimini shakllantirishadi. Ularning fikricha, metaforik iboralar baholash mazmunda keladi va quyidagi guruhlar orqali misollarni berishadi[6;35-70]:

1. Warmth vs Coldy (iliqlik va sovuqlik mazmunidan kelib chiqadi) – *A warm welcome* (iliq kutib olish), *cold-hearted* (sovuqqon)

2. Light vs Darkness (yorug' va qorong'ulik ma'nosidan kelib chiqadi) – *bright idea* (zo'r g'oya), *dark mood* (yomon kayfiyat)

3. Heavy and light (og'ir va yengil mamularidan kelib chiqadi) – *light-hearted* (quvnoq)

4. Gold and Value (oltin va qadr-qimmat mazmunlaridan kelib chiqadi) – *golden opportunity* (zo'r imkoniyat)

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib ingliz tilida eng ko'p uchrovchi aksiologik leksika – axloqiy-fuqaroviy o'rganish maqsadga muvofiqdir.

NATIJA VA MUHOKAMA

1. Axloqiy qadriyatlarni ifodalovchi aksiologik leksika. Ushbu leksika turi axloqiy xulq-atvorni baholab, axloqiy jihatdan nima yaxshi va yomon, yoki nima to'g'ri va nima noto'g'ri ekanligini aniqlaydigan etiqod tizimidir. Ular ikki guruhga – *virtue* (ezgulik-ijobiy) hamda *vice* (yovuzlik-salbiy) guruhlarga ajratiladi[2]:

Virtue - *honesty, courage, mercy, humility, prudence.*

Vice - *greed, pride, cowardice, cruelty*

Ushbu guruhdagi aksiologik leksikalar mavhum otlar (*honesty, integrity, compassion, fairness, greed, cruelty, deceit, injustice*), sifatlilar (*good, evil, righteous, immoral, virtuous, wicked*), kollokatsiyalar (*moral values, ethical standards, sense of justice*), iboralar (*do the right thing, choose the lesser of two evils, with a clear conscience, take the high road*) hamda maqollar (*honesty is the best policy, practice what you preach*) orqali ifodalanadi.

Ushbu aksiologik leksikalar axloqiy muhokamalar, diniy yoki falsafiy matnlar, adabiyot va kundalik hayotdagi muloqot kontekstlarida ko'p uchraydi. Masalan, ingliz madaniyatida bolalarga mehribonlik va adolatlilik (*kindness and fairness*), diniy matnlarda gunoh va ezgulikni (*sin and virtue*), qonun va kodekslarda adolat, burch va birdanlikni (*justice, duty and integrity*), kundalik muloqotda esa *she has a heart of gold* (u juda mehribon), *that was a shady thing to do* (nohalol) kabi iboralar orqali ifodalanadi. Ushbu aksiologik leksika turiga oid so'zlar asrlar davomida mavjud bo'lib, ular turli tillardan (lotin, nemis va fransuz tillaridan) kirib kelgan hamda turli davrda turli kontekstlarda qo'llanilgan. Masalan:

Virtue so'zi lotin tilidagi *virtus* so'zidan kelib chiqqan, erkaklarga xos, jasorat ma'nosida kelgan. Dastlab ushbu so'z qahramonlik va mukammallik ma'nolarida, keyinchalik esa umumiy

TILSHUNOSLIK

axloqiy mukammallik ma'nosida kelgan[8]. Hozirgi kunda ushbu so'z ezgulikka oid umumiy tushunchalar uchun qo'llaniladi.

Vice so'zi fransuz tilidagi *vice* va lotin tilidagi *vitium* so'zlaridan kelib chiqib, umumiy yovuzlik tushunchalari uchun qo'llaniladi.

Pride g'urur ma'nosini beruvchi so'z bo'lib, dastlab, salbiy ma'noda me'yoridan ortiq o'zini qadrlash ma'nosida qo'llanilgan, o'rta asrlarda ushbu so'z o'zini qadrlash yoki o'zini hurmat qilish ma'nosida qo'llanilgan[7]. Hozirda esa bu so'z kontekstga qarab ham ijobiy, ham salbiy ma'nolarda keladi.

Tolerance - bag'rikenglik ma'noni anglatadi. U, dastlab, og'riq va qiyinchiliklarga chidash, keyinchalik esa ochiq fikrlik, qabul qilish ma'nolarida kela boshladi.

2. Ingliz tilida fuqarolik va boshqaruvga oid tamoyillardan tashkil topgan qadriyatlarni ifodalovchi aksiologik leksika ham mavjud. Ularga *freedom, equality, democracy, justice, rights, duty and patriotism* kabi so'zlar kiradi. Ushbu guruhdagi aksiologik leksikalar axloqiy qadriyatlarni ifodalovchi aksiologik leksikalar bilan bog'liq bo'lsa-da, ular, asosan, jamiyat tashkilotlari va fuqarolikka oid masalalarga qaratilgan. Ushbu guruhga kiruvchi aksiologik leksikalar ko'pincha mavhum ot (*freedom, liberty, law, order, equality, unity, patriotism, loyalty (to country), justice, democracy, rights, duty, community, service*), fuqarolik tamoyillarga ega shaxs va harakatlarni ifodalash uchun sifatlar (*democratic, free, equal, fair, patriotic, loyal, civic-minded*), ibora va shiorlar (*liberty and justice for all* ("sodiqlik va'dasi"dan), *of the people, by the people, for the people* (Linkolnning demokratiya haqidagi so'zlaridan), *taking a stand or speaking truth to power* (fuqarolikka oid muzokaralarida qo'llaniladi), *with great power comes great responsibility* (rahbarlarning ma'suliyatini gapirishda foydalaniladi) tarzida keladi. Ushbu aksiologik leksikalar mavhum otlar sifatida kelsa *-y, -ty, -dom, -ism* kabi affiksalar bilan tugaydi hamda ba'zida ushbu otlar fe'l va sifat turkumiga oid so'zlar bilan ham kelishi mumkin: *protect freedom, cherish liberty, uphold justice, civic duty, national unity, constitutional rights, inalienable rights, patriotic duty* kabi.

Ushbu aksiologik leksika yunon va lotin tillaridan kirib kelib, siyosiy falsafaga bog'liq tarzda qaralgan. Masalan, *liberty* so'zi lotincha *libertas* so'zidan, *democracy* so'zi yunoncha *demos+kratos* so'zlaridan kelib chiqib, *xalq kuchi* ma'nosini ifodalagan. Undan tashqari, ushbu aksiologik leksikalarning ba'zilari tarixiy harakatlar tufayli paydo bo'lgan. Masalan, ingliz va fransuz inqilobidan so'ng *freedom* va *liberty* so'zlari qo'llanila boshlagan. Ular tarixda zulmkor hukumatdan ozod bo'lish ma'nosida, hozirgi kunda esa ularning semantic ma'nolari kengayib, barcha sohalardagi erkinlikni ifodalaydi.

Ingliz tilidagi fuqarolik qadriyatlarini ifodalovchi asosiy aksiologik leksikadagi so'zlarni ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir:

Freedom so'zi uzoq vaqtdan beri ozod yoki erkin bo'lish ma'nolarida keladi. *Liberty* esa siyosiy ma'nodagi ozodlikni bildirib, ko'proq rasmiy uslubda keladi. Masalan, "*The only freedom which deserves the name is that of pursuing our own good in our own way without others*" (J.S. Mill "On Liberty") ushbu gapda muallif shaxsiy ozodlikni muhimligini *freedom* so'zi bilan ifodalamoqda. "*Those who would give up essential Liberty, to purchase a little temporary Safety, deserve neither Liberty, nor Safety*" (B. Franklin "Poor Richard's Almanack") Bu gapda esa muallif rasmiy tarzda amerika inqilobiy davrining ruhini va o'sha davr siyosiy g'oyasini ifodalamoqda. Ko'rinib turiptiki, *freedom* so'zi *liberty* so'ziga nisbatan norasmiy tarzda qo'llaniladi.

Justice so'zi o'rta asrlardan beri foydalaniladi, adolatlilik, qonunning hukmronligi mazmunida keladi. *Equality* so'zi ingliz madaniyatida odamlarning bir xil darajada bo'lishi kerakligini ifodalaydi[1]. Masalan, 1776-yilda tasdiqlangan Amerika Mustaqillik Deklaratsiyasida quyidagi jumla: "*we hold these truths to be self-evident, that all men are created equal ...*" keltirilgan bo'lib, u insonlar orasidagi tenglik tamoyilini belgilaydi.

Democracy so'zi demokratiya bo'lish – erkinlikni ifodalagan, ammo dastlab, ushbu so'zdan amaliy foydalanilmagan, XVI, XVII asrlarda ushbu so'z faqatgina siyosiy g'oyalarni ifodalashda uchrayib turgan. Hozirda esa ushbu so'z eng ko'p qo'llaniladigan so'zlardan biridir. *Constitution, parliament, rights* kabi siyosiy terminlar ham ingliz jamiyatini ifodalovchi asosiy siyosiy mazmundagi aksiologik leksikalar hisoblanadi. Masalan, A. Linkolnning 1863-yildagi Getysburg nutqidagi quyidagi gapida demokratiya so'zidan foydalanmagan bo'lsa-da, u quyidagi jumla orqali

demokratiyaning yadrosini, ya'ni asosiy ma'nosini ifodalab beradi: *"Government of the people, by the people, for the people, shall not perish from the earth"*.

Fairness va *fair play* ingliz qadriyatiga xos so'z va iboralar bo'lib, ular hayotda, biror bir musobaqada halol va adolatli bo'lishni, har qanday masalada ezgu xulqli bo'lishni ifodalaydi. *Duty* hamda *service* so'zlari harbiy va oмма oldidagi xizmatlarni ifodalovchi so'zlar hisoblanadi. *Sense of duty* iborasi esa javobgarlik va sodiqlikni ifodalaydigan aksiologik birlikdir. Masalan,

"Fair play is not only a rule of the game, but a principle of life" (og'zaki nutqdan) Bu ifoda sport va kundalik hayot mavzularida britaniya xalqi tomonidan ko'p qo'llaniladigan iboradir.

"Duty, Honor, Country" ushbu ibora AQSH Harbiy akademiyasining mashhur shiori bo'lib, u burch va vatanga sodiqlik tamoyillarini qisqa shaklda ifodalaydi.

"The best way to find yourself is to lose yourself in the service of others" (M.Gandi) M.Gandining ushbu nutqi Britaniyada ham juda mashhur bo'lib, u xizmat orqali o'zlikni anglash g'oyasini ifodalash maqsadida qo'llaniladi.

Patriotism so'zi lotincha *patria* so'zidan kelib chiqqan, klassik davrlarda umumiy respublika manfaatlariga sodiqlikni ifodalagan. XVIII asrlarda ushbu so'z haddan tashqari sodiqlik shubha ostiga olinishi holaylari tufayli salbiy ma'noda, hozirda esa ijobiy fuqarolik fazilatini ifodalashda qo'llaniladi[9].

Ushbu aksiologik leksika siyosiy nutqlarda, hujjatlarda va ommaviy axborot vositalarida keng qo'llaniladi. Masalan, *freedom/liberty*, *equality* so'zlari konstitutsiya va hujjatlarda, *patriotism* va *duty* so'zlari urush davrlarida ko'p qo'llanilgan. Hozirda milliy bayramlarda ham qo'llaniladi. *Democracy*, *rights* kabi so'zlar esa boshqaruvda va qonunchilik muzokaralarda foydalaniladi. Masalan, *to wave the flag* iborasi patriotizm tamoyilini ifodalasa, *Uncle Sam* esa AQSH milliy g'oyasini ifodalovchi obrazidan kelib chiqqan iboradir.

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, tadqiqotda tilshunoslik va etika sohalarining kesishgan nuqtasida, aksiologik leksikalar semantik guruhlariga – ya'ni ezgulik (virtue) va yovuzlik (vice) tushunchalariga bo'linishi, ularning kelib chiqishi, tarixiy rivojlanishi va zamonaviy kontekstlarda qo'llanilishi tahlil qilingan. Adabiyotlar tahlili asosida, maqola so'zlarning, sifatlarning, kollokatsiyalar va maqollar orqali axloqiy hamda fuqaroviy qadriyatlarning aks etishini ko'rsatadi. Natijalarda esa, aksiologik leksikalar orqali jamiyatning axloqiy, madaniy va siyosiy qadriyatlari murakkab tarzda namoyon bo'lishi ta'kidlanadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. [equality - Wiktionary, the free dictionary](#)
2. <https://open.maricopa.edu/culturepsychology/part/culture-and-morality/#:~:text=As%20humans%2C%20our%20behaviors%20are,in%20the%20West%2C%20such%20>
3. [Krzeszowski P.T.](#) The axiological parameter in preconceptual image schemata//De Gruyter.1993. – P.307-330.
4. Lago A.F.,Hewitt E. Personal Qualities of Applicants in Job Advertisements: Axiological and Lexical Analysis of Samples in English from the Spanish Press. – Granada, 2004. – P.8-26.
5. Lago.A.F. *El componente axiológico en el lenguaje. Su configuración en los adjetivos que expresan emociones y conducta en la lengua inglesa.Doc.Disser.* – Granada,1991. – 592p.
6. Pauvels P.,S.Vandenberg.Body Parts in Linguistic Action. Underlying Schemata and avalue judgements.//John Benjamins.1995. – P.35-70.
7. ['Pride' Meaning & Word History | Merriam-Webster](#)
8. [Virtue - Wikipedia](#)
9. [What Is Patriotism? How Does It Differ From Nationalism](#)